

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 2



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-2>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурад Мансур Бобомурадovich**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных.

# ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Толипов Файзулла Саидович**  
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариева Аълохон Нуриддиновна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
и.о. доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: @devdasdesign

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

<b>1. Гонашвили А.С.</b> К ВОПРОСУ ФОРМИРОВАНИЯ ЕВРАЗИЙСКОГО НАУЧНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА: ОПЫТ УНИВЕРСИТЕТА ПРИ МПА ЕврАзЭС.....	5
<b>2. Sodiqova Shohida Marxaboevna</b> ZAMONAVIY IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMINING UMUMBASHARIY TAMOYILLARI, SHAKLLARI VA SUBYEKTLARI.....	15
<b>3. Farfiyev Baxramdjan Atxamdjanovich</b> DIN SOTSIOLOGIYASI FANINING METODOLOGIK MASALALARI XUSUSIDAGI AYRIM MULOHAZALAR.....	25
<b>4. Abduraxmonova Manzura</b> MAKTABLARDA IJTIMOIIY ISH FAOLIYATINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	34
<b>5. Sodiqova Shohida Marxaboevna, Tagieva Gulsum Gafurovna</b> “IJTIMOIIY TA’MINOT” TUSHUNCHASINING MAZMUN VA MOHIYATI.....	40
<b>6. Kayumov Kaxramon</b> O‘Z KASBIGA SADOQAT SOTSIAL FENOMEN SIFATIDA.....	46
<b>7. Mo‘minov Zokirjon</b> TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINING EVOLYUSION TENDENSIYALARI.....	52
<b>8. Ахмедова Раъно</b> ИНТЕРНЕТ КАК ПРОСТРАНСТВО МАССОВОЙ КОММУНИКАЦИИ.....	59
<b>9. Masharipov Baxtiyar</b> SIFATIIY SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARDA “SHAHAR” IJTIMOIIY INFRATUZILMA MAKONINING OILAVIY MUNOSABATLARDAGI TADQIQI.....	68
<b>10. Рашидова Шахноза</b> МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ.....	77
<b>11. То‘рахо‘jaeva Ra’no</b> DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	84
<b>12. Zaretdinova Nesibeli</b> QORAQALPOG’ISTONDAGI IJTIMOIIY-DEMOGRAFIK HOLATNI O‘RGANISH DOLZARBLIGI.....	91

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


**Zaretdinova Nesibeli,**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tarix fakulteti Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti

zaretdinovanesibeli@gmail.com

### QORAQALPOG'ISTONDAGI IJTIMOYIY-DEMOGRAFIK HOLATNI O'RGANISH DOLZARBLIGI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15868398>

#### ANNOTOTSIYA

Ushbu maqolada demografiya haqida tushuncha va ijtimoiy-demografik, statistik ma'lumotlar berilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi aholi soni va aholining o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi ham ko'rsatib o'tilgan. Maqolada asosan Qoraqalpog'istondagi ijtimoiy-demografik jarayonlarning o'rganish zarurati, ayniqsa, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining ijtimoiy-demografik holatlarini sotsiologik tahlil qilib o'rganish haqida so'z yuritilgan. Hozirgi davrda xalqaro demografik holatning keskinlashishi, o'rin va makon muammosining insoniyat global masalalarining ajralmaydigan strukturaviy qismiga aylanganligi demografik fanlarning jadal rivojlanishiga ta'sir etmoqda. Demografiyaning asosiy vazifalari, ijtimoiy demografiyaning demografik prognozlash jarayonlarining ilmiy mohiyati maqolada o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** demografiya, ijtimoiy demografiya, aholi, statistika, tug'ilish, o'rtacha umr ko'rish, xalq, ijtimoiylashuv, dolzarblik, nikoh, ajralish, prognozashtirish.

**Заретдинова Несибели,**

Каракалпакский государственный университет имени Бердака

Доцент кафедры социальных наук исторического факультета

zaretdinovanesibeli@gmail.com

### АКТУАЛЬНОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ

#### АННОТАЦИЯ

В данной статье даны разъяснения по демографии и социально-демографической, статистической информации. Также показаны численность населения и средняя продолжительность жизни в Республике Каракалпакстан. В статье в основном говорится о необходимости изучения социально-демографических процессов в Каракалпакстане, особенно социологического анализа социально-демографической ситуации населения в условиях современной рыночной экономики. В настоящее время обострение международной демографической ситуации, превращение проблемы места и пространства в неотъемлемую структурную часть глобальных проблем человечества способствуют ускоренному развитию демографических наук. В статье отражены основные задачи демографии, научная суть процессов демографического прогнозирования социальной демографии.

**Ключевые слова:** демография, социальная демография, население, статистика, рождаемость, средняя продолжительность жизни, люди, социализация, актуальность, брак, развод, прогнозирование.

**Zaretdinova Nesibeli,**

Karakalpak State University named after Berdak  
Associate Professor of the Department of Social Sciences, Faculty of History  
zaretdinovanesibeli@gmail.com

## THE RELEVANCE OF STUDYING THE SOCIO-DEMOGRAPHIC SITUATION IN KARAKALPAKSTAN

### ABSTRACT

This article provides explanations on demographics and socio-demographic, statistical information. The population and average life expectancy in the Republic of Karakalpakstan are also shown. The article mainly talks about the need to study socio-demographic processes in Karakalpakstan, especially a sociological analysis of the socio-demographic situation of the population in a modern market economy. Currently, the aggravation of the international demographic situation, the transformation of the problem of place and space into an integral structural part of the global problems of mankind contribute to the accelerated development of demographic sciences. The article reflects the main tasks of demography, the scientific essence of the processes of demographic forecasting of social demography.

**Key words:** demography, social demography, population, statistics, fertility, average life expectancy, people, socialization, relevance, marriage, divorce, forecasting.

### KIRISH

Har bir millat va davlatning qanday barpo bo'lganligi va aholi turmush-tarzi barchani qiziqtirib keladi. Bu yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab oladigan ilm bu demografiya hisoblanadi. Demografiya aholi turmushini, yashash tarzini, millatning tarixini o'rganib statistik tahlillar orqali omma e'tiboriga taqdim qiladi. "Demografiyaning maqsadi muayyan hudud, mamlakat, dunyo aholisi va millatning takror barpo bo'lishi jarayoni va omillarini o'rganish, muammolarni belgilab, yechimlarni aniqlash va istiqbolini ko'rsatib berishdan iborat. Demografiyaning vazifalari: demografik jarayonlar (tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish, oilaning demografik xususiyatlari, aholining yoshi, jinsi va oilaviy tarkibi, demografik mayl) va ularning omillarini o'rganish; demografik bashorat (ma'lum hudud aholisining soni, yoshi-jinsiy tarkibi va demografik vaziyati istiqbolini ilmiy asoslangan holda oldindan aniqlash) larni ishlab chiqish; demografik siyosat (aholi siyosatining uzviy qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi aholining miqdoriy o'sishini boshqarishdan iborat), aholi salomatligi, aholi migratsiyasi, oila va uning demografik taraqqiyoti, demografik prognozlashtirish bo'yicha chora tadbirlarini ishlab chiqish" [1].

### METODOLOGIYA

Demografik tadqiqot usuli - statistik, tarixiy taqqoslash, haritagrafik, sotsiologik, matematik va mantiqiy fikrlash hisoblanadi. Demografiyaning tahliliy metodi statistikadan farq qiladi. Unda mavhum fikrlash usulidan keng foydalanish asosida aholi tarkibida kelgusida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlari ham o'rganiladi. Shu jihatdan demografik statistika Demografiyaning bir qismidir. Inson kapitalini rivojlantirish va demografik holat bir - biri bilan uzviy bog'liq. Agar u yerning demografik sharoitiga keladigan xavf-xatarlar ortsa, u yerdagi odamlarning umr ko'rish davomiyligi va sifati qo'yiladi. Bunday holatda inson kapitalining ham qanday qiyin ahvolga tushadiganligida oshkor etmasa ham tushunarli. Begonalashuv jarayonining keskinlashuvi bu bizning qadriyat va a'nanalarimizga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin. Demografiya jamiyatning shu jabhalarini ham chuqur o'rganishi mumkin.

"Demografiya" nomini birinchi marta olim A.Giyyardi "Inson statistikasi unsurlari yoki solishtirma demografiya" nomli kitobida vujudga keldi. Muallif demografiyaga keng manoda -

“insonning tabiiyiy va ijtimoiy tarixi” yoki tor manoda - “aholi, uning umumiy harakati, fizik, fuqarolik, aqliy va odoblilik holatini matematik anglash” sifatida o‘rgangan.

### ASOSIY QISM

Hozirgi davrda xalqaro demografik holatning keskinlashishi, o‘rin va makon muammosining insoniyat global masalalarining ajralmaydigan strukturik qismiga aylanganligi, demografik fanlarning keskin rivojlanishiga ta’sir etmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi dunyo miqyosida demografik yorilishi, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardagi demografik pastlashish, urbanizatsiya va xalqaro migratsiya masalalari global jarayonning kuchayganligining dalili bo‘lib hisoblanadi” [1].

Demografiya ilmi juda e’tibor talab qiladi. Ya’ni bu fanda sonli ko‘rsatkichlar ish yuritadi. Shu boisdan, bunda tadqiqotchi adashib ketishga yoki orin almashtirib xatolik yuz berishga yo‘l qoyishga haqqi yo‘q. Chunki, demografiya statistika kabi aniq raqamlar va ko‘rsatkichlar bilan ishlaydi hamda aholiga o‘z e’tiborini qaratadi.

Shu bilan birga “Demografiyada asosiy kuzatuv birligi - inson hisoblanadi. Inson hayoti davomida uning fiziologik va psixologik xususiyatlari, ma’lumotlilik darajasi, oilaviy holati va kasb-kori, malakasi, ijtimoiy guruhi, yashash joyi va til bilish kabi imkoniyatlari o‘zgarib boradi. Ana shu inson hayotida ro‘y bergan o‘zgarishlar yig‘indisi umuman aholi hayotida ijtimoiy-iqtisodiy va demografik o‘zgarishlarga olib keladi” [2].

Hozirgi bizning jamiyatimizda turli xil fanlar bor. Bu fanlarning vazifa va tadqiqot maqsadlari har xil hisoblanadi. Lekin barcha fanlar ijtimoiy guruhlar va shaxslar bilan tadqiqot o‘tkazadi. Bunga misollardan iqtisodiyot fanini olib qarasaq bu fan shaxslarning hayotdagi moddiy balansini, moliyaviy savodxonligini o‘rganadi. Huquq bo‘lsa insonlarning jamiyatdagi qonun doirasidagi harakatini belgilab beradi va imkon qadar uni har jabhada himoya qiladi. Shu jumladan demografiya fani bo‘lsa umumiy tushunchani hosil qiladi ya’ni bu fan aholi soni, ularning jamiyatdagi harakati, aholining o‘ssishi, o‘lim holatlari, ularning jamiyatdagi pozitsiyasini belgilab beradi. Qisqasha qilib aytganda, demografiya fanining ob’ektini aholi deb hisoblasak bo‘ladi. Chunki, demografiya mamlakatdagi aholida yuz berayotgan har qanday jarayonni o‘zining tadqiqot markaziga qo‘yadi. Shunday ekan har qanday fan ham demografiya bilan chambarchas bog‘liq [3].

Ijtimoiy demografiya sotsiologik bilimlar sohasi sifatida o‘rganilmoqda. Ijtimoiy demografiya-bu sotsiologiya va demografiya chorrahasida shakllanadigan va demografik va ijtimoiy jarayonlarning o‘zaro ta’sirini o‘rganadigan ilmiy fan. Ijtimoiy demografiya demografiyaning o‘zidan asosan tadqiqot jihati bilan farq qiladi: birinchisi aholining ko‘payishini asosan butun aholi yoki uning katta guruhlari uchun makro darajada, ikkinchisi - asosan mikrodarajada, tuzilishini hisobga olgan holda o‘rganadi. Oila, qarindoshlik, shaxsiyat. Shunga ko‘ra, ijtimoiy demografiya ijtimoiy me’yorlar, demografik munosabatlar, demografik xatti-harakatlar va uning omillarini o‘rganishga qaratilgan. Bu ijtimoiy demografiyada qo‘llaniladigan usullarning xususiyatlarini belgilaydi, ular orasida sotsiologik va ijtimoiy-psixologik tadqiqot usullari (intervyular, testlar va boshqalar) muhim o‘rin tutadi.

Ijtimoiy demografiya-bu aholining ko‘payish qonuniyatlarini o‘rganadigan fan. Demografiyada kuzatuv birligi shaxsdir. Uning hayoti davomida psixologik va fiziologik xususiyatlari asta-sekin o‘zgaradi, oilaviy ahvoli, kasbi, malakasi, yashash joyi, ma’lumoti, ijtimoiy mavqei, tillarni bilishi ham o‘zgarishi mumkin.

Shaxslarning ma’lum xususiyatlarining o‘zgarishi bilan umuman aholining xususiyatlari ham o‘zgaradi. Demak, vaqti-vaqti bilan shaxslarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zgartirish aholi tarkibini ham, uning sonini ham o‘zgartiradi. Aholi dinamik tushuncha bo‘lib, uning harakat mexanizmini o‘rganish uni tahlil qilish uchun qo‘shimcha asoslarni: iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, ma’naviy hayotni jalb qilishni talab qiladi [4]. Shuningdek, demografiya tor ma’noda statistika, aholini hisoblash, keng ma’noda esa demografik hodisalarning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini va ularning sabablarini o‘rganadigan ijtimoiy demografiyadir.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda demografik xususiyatlar bilan bog‘liq iqtisodiy, huquqiy, sotsiologik, ijtimoiy-psixologik va boshqa omillarni ko‘rib chiqish kuchli an’analarga ega. Xususan, 1960-yillarning oxiridan boshlab aholining turli qatlamlarining reproduktiv munosabatlari va ta’lim darajasi, daromadlari, etnik xususiyatlari kabi omillarning ta’sirini tavsiflovchi asarlar mavjud.

Ulardan zamonaviy demograflar oilada sodir bo'layotgan jarayonlar va hodisalar haqidagi ma'lumotlardan tobora ko'proq foydalanmoqda va bu xususiyatlarni o'rganishga harakat qilmoqda. Deyarli bir vaqtning o'zida nikoh va oilaning sotsiologik tadqiqotlari rivojlana boshladi, ular keng ko'lamlı muammolarni qamrab oladi - nikoh va oilaviy munosabatlarning nazariy jihatlaridan tortib, oilaning shakllanishi, faoliyati hamda parchalanishining individual jihatlarini empirik tadqiq qilishgacha (masalan, oilaning reproduktiv funksiyasi va psixologik munosabatlarning ta'siri) iqtisodiy, huquqiy va boshqa ko'plab omillar. Bu XX asrning oxirida ayniqsa dolzarb bo'lib qoldi [5]. Ijtimoiy-demografik muammo demografik va sotsiologik fanlarning o'zaro ta'sirini yanada kuchaytirish masalasini ko'taradi, ushbu sohadagi ustuvor yo'nalishlar qatoriga eng muhim ilmiy fan sifatida ijtimoiy demografiyaning nazariy masalalarini ishlab chiqishni qo'yadi.

Ijtimoiy demografiya aholini tabiiy va ijtimoiy muhitda ko'rib chiqadi. Ijtimoiy demografiyaning fan sifatida ob'ekti aholi (inson populyatsiyasi) bo'lib, uni ko'paytirish jarayonida o'zini yangilaydi. Ijtimoiy demografiyaning predmeti aholining inson populyatsiyasi yoki ijtimoiy-tarixiy sharoitda rivojlanish jarayonida yangilanadigan ijtimoiy-biologik agregat sifatida ko'payish qonuniyatlaridir. Ijtimoiy demografiyaning asosiy vazifalarini quyidagicha ajratib ko'rsatamiz:

1. Aholini hisoblash va uning harakati faktlarini ro'yxatdan o'tkazishni ta'minlaydigan demostatik vazifa.

2. Demografik fanning metodologik asoslarini ishlab chiqish, kategorik apparatlarni aniqlash va takomillashtirish, aholining ko'payish qonuniyatlari va mexanizmlarini shakllantirish uchun mo'ljallangan nazariy vazifa.

3. Demografik prognozlash jarayonlarining ilmiy mohiyatini belgilaydigan prognostik vazifa.

4. Demografiyaning pragmatik (amaliy) vazifasi mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlarning ob'ektiv sharoitlariga mos keladigan haqiqiy demografik siyosat dasturlarini tanlashdan iborat.

Aholi deganda yashash jamoasi tomonidan birlashtirilgan odamlar to'plami tushuniladi. Aholining eng muhim xususiyatlaridan biri bu uning sog'lig'i. Aholini har qanday hududda yashovchi odamlar to'plami sifatida ko'rib, V.M.Medkov ikki jihatga e'tibor qaratadi: atribut - miqdoriy (ya'ni aholi to'plam) va hududiy (aholi ma'lum bir hudud bilan bog'liq) [6].

Yana bir haqiqatni ta'kidlash muhim: aholi-bu o'z-o'zini ko'paytiradigan odamlar to'plami. Shu munosabat bilan, demografiyani o'rganayotganda, muhim xususiyat- bu o'zini ko'paytirishning ajoyib qobiliyati, avlodlar o'zgarishi jarayoni orqali doimiy ravishda o'z-o'zini yangilash hisoblanadi.

V.M.Medkovning so'zlariga ko'ra, demografiyaning predmeti-bu avlodni boshqasiga almashtirish paytida uning soni va tuzilishini doimiy ravishda yangilash jarayoni sifatida aholining ko'payishi, shuningdek, uni tartibga soluvchi qonunlar Demografiyaning amaliy vazifalari orasida uchta yo'nalish ajralib turadi:

- 1) demografik jarayonlarning tendentsiyalari va omillarini o'rganish;

- 2) demografik prognozlarni ishlab chiqish;

- 3) demografik siyosat choralari ishlab chiqish. Demografiya boshqa fanlar bilan faol aloqada bo'lmoqda [6].

Bu o'zaro ta'sir, bir tomondan, demografiya sub'ekti sifatida aholining ko'payishi murakkab hodisa bo'lib, uning tabiati va dinamikasiga odamlar hayotining deyarli barcha jabhalari, butun majmui ta'sir qilishi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlarga bu jarayonda odamlar kiradi, ularning hayotiy faoliyati, boshqa tomondan, aholining ko'payishi, demografik jarayonlar, demografik vaziyatdagi o'zgarishlarning tabiati va tendentsiyalari jamiyat hayotining boshqa barcha sohalariga ta'sir qiladi: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqalar [7].

Ushbu ikki tomonlama munosabatlar demograflar va boshqa mutaxassisliklar olimlarining o'zaro manfaatları zonasini tashkil etadi, demografik hodisalarni tushuntirish uchun boshqa fanlar ma'lumotlaridan va aksincha, jamiyatning boshqa sohalaridagi hodisa va jarayonlarni tushuntirish uchun demografik ma'lumotlardan foydalanishni talab qiladi.

Statistika, iqtisodiy va ijtimoiy demografiya, etnografiya, mintaqashunoslik, siyosatshunoslik, sotsiologiya, iqtisodiy, tibbiy, yuridik fanlar - bu demografiya bilan yaqindan hamkorlik qiladigan fanlarning to'liq ro'yxati emas.

Demografiya o'z mavzusini o'rganishda turli usullardan foydalanadi, ular ko'pincha o'z tabiati bilan uch guruhga birlashtiriladi: iqtisodiy-statistik, matematik va sotsiologik. Birinchi guruhga kiruvchi muhim usul bu tizimli tahlil bo'lib, u murakkab va o'ta murakkab ob'ektlarni o'rganish va qurishda hamda maqsadli faoliyatning barcha sohalarida yuzaga keladigan turli muammolarni hal qilishda, ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik tizimlarni boshqarishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ilmiy usullar va amaliy usullar to'plamidir.

Tizim tahlilining maqsadi ishlatilgan resurslarni olingan natija bilan miqdoriy va sifat jihatidan taqqoslash nuqtai nazaridan harakatlarning turli xil variantlarini to'liq va har tomonlama tekshirish asosida eng samarali, eng yaxshi yechim variantini tanlashda aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir [9]. Aholi va uning o'zgarishini tahlil qilish boshlanadigan ko'rsatkich-bu aholining umumiy hajmini, ma'lum bir hududda ma'lum bir vaqtda yashovchi odamlar sonini tavsiflovchi mutlaq aholi soni. Aholining mutlaq hajmi bir lahzali ko'rsatkichdir, ya'ni, bu vaqtning ma'lum bir nuqtasini anglatadi. U aholini ro'yxatga olish natijasida yoki tug'ilganlar, o'limlar soni, shuningdek, migratsiya balansi (ya'ni, kelganlar soni va ma'lum bir hududdan ketishlar soni o'rtasidagi farq) haqidagi ma'lumotlarga asoslanib hisoblash yo'li bilan olinadi.

Xalq sonining qad ko'tarishi o'sish xarakteriga aloqador bo'ladi. Xalqning o'sishi (tabiiy harakati) deganimizda tug'ilish darajasi, o'lishi va tabiiy yuksalish jarayonlarining yig'indisi tushuniladi. Bularni barchasi inson avlodlarining uzluksiz yangilanishini va aralashib turishini ta'minlaydi. Aholining tug'ilish darajasi asosan biologik jarayonlardan iborat. Biroq, odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy turmush shart-sharoitlari, shu jumladan odamlarning jamiyatdagi va oiladagi o'zaro munosabatlari biologik jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida demografik holatni o'rganib chiqib, aholining ortacha umr ko'rish ko'rsatkichi ko'rsatib o'tilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasida doimiy aholi soni 2023-yilda 1.981,8 ming kishini tashkil etgan bolsa, 2024-yil 1 yanvar holatiga ko'ra 2.002.668 ming kishini tashkil etmoqda. Nukus shahrida 968,7 ming aholi istiqomat qiladi va shu ko'rsatkichlarni har bir tuman kesimida hisoblab chiqqan. Aholi eng ko'p yashaydigan hudud Nukus shahri aholisi, eng kam yashaydigan hudud Bozatov hududi deb hisoblangan. Shu bilan bir qatorda aholining o'rtacha umr ko'rish yoshi ham aholining yoshiga nisbatan o'rganib chiqilgan. Bu ko'rsatkichda aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 72,9 yoshni tashkil etgan [9]. Demografiya ilmida aholining yoshga nisbatan farqi, erkak kishilar va xotin-qizlar soni va shunga o'xshagan statistik ko'rsatkichlarni ham hisoblaydi.

Nukus shahri hokimligining ma'lum qilishicha 2022-yilning 1-iyul sharoiti bo'yicha shahardagi barqaror aholi soni 419,1 mingta kishini tashkil etdi va yil boshidan buyon 2,2 ming nafarga yoki 100,7% ga ko'paydi. 2022-yilning yanvar-iyun oylarida migratsiya saldosi 237 kishini tashkil etgan. Nukus shahrida 2023-yil yanvar-iyun oylarida Nukus shahridagi tug'ilish darajasi, o'lim ko'rsatkichi, ko'chib kelish va ko'chib ketish, nikohdan o'tish va ajralish kabi ma'lumotlarni 2024-yilning ushbu davri bilan nisbiy ko'rishingiz mumkin.

Tug'ilish darajasining ko'payishi respublikaning deyarli barcha hududlarida kuzatildi. Bu ko'rsatkichning yuqori ko'rsatkichi Amudaryo (15,2 dan 17,0 ga), Nukus shahri (16,6 dan 17,8 ga), To'rtkul (17,9 dan 18,9 ga) va Chimboy (17,4 dan 17,5 ga) tumanlarda kuzatildi.

O'lim ko'rsatkichi 2022-yilning yanvar-martida 2891 kishini tashkil etdi. 2021-yilning ushbu davriga (1973 kishi) qiyosan 80 kishiga yoki 95,9 foizini tashkil etdi. Tegishli turda o'lim koeffitsienti 4,2 promilleni tashkil etdi) 2022-yil yanvar-martta - (4,4 promille). O'lganlar sonining kamayishi Qanliko'1 (5,1 dan 3,4 promillega), Taxtako'pir (6,2 dan 4,7 ga), Taxiytosh (5,6 dan 4,2 ga) va Chimboy (5,1 dan 4,1 ga) tumanlarida kuzatildi. Eng ko'p o'lim holatlari Nukus tumanida (5,1 promille), eng oz o'lim Cho'manoy (3,2 promille) tumanida kuzatildi.

Nikoh tuzish va nikohdan ajralishlar 2023-yil yanvar-martta FHDYO organlarida 4164 nikoh va 336 ajralishlar ro'yxatga olindi. Mingta aholi soniga nisbatan 9,2 nikoh (2022 yilning tegishli davrida - 8,4) va 0,7 ajralishlar (2023 yilning tegishli davriga - 0,7) to'g'ri keldi.

Migratsiya dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2023 yilning yanvar-mart oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelgan aholi soni 3061 kishini, ushbu davrda ko'chib ketganlar soni bo'lsa 3831 kishini ashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 770 kishiga (2017 yilning ushbu davrida - minus 929 kishi) teng bo'ldi. Eng ko'p manfiy qoldiqlar Chimboy (-168), Kegeyli (-141) va Karao'zek (-108) tumanlarida kuzatildi [9].

Aslida demografiya, demografik tahlil bizning hayotimizning bir javhasidan o'rin olgan. Sababi, bizning hayotimizda bo'lgan o'zgarishlardan tortib, qarorlarimizga qadar barchasi demografik tahlil hisoblanadi. Masalan, siz uy ro'zg'oringiz uchun qandaydir narsa xarid qilmoqchi bo'lsangiz uni hisoblaysiz va u haqida moliyaviy tarafdin fikr yuritasiz. Haftalarga, oylarga taqsimlaysiz. Bu hisob-kitobning o'zi inson hayotida yuz beradigan demografiya hisoblanadi. Shu sababli biz hayotimizda demografiyadan alohida ajralib keta olmaymiz.

Har bir davlatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojida uning demografik holati muhim omil. O'z navbatida demografik holat aholi sonining yuksalib borishi, tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish kabi demografik hollarda tasvirlanadi. Ushbu vaziyatlar o'zaro bir-biri bilan zich bog'langan holda xalqning ko'payib yoki kamayib borishini ta'minlaydi.

### XULOSA

Aholi jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va istemolchisi bo'lib, oddiy qilib aytganda xalqning o'zlarida ishlab chiqaradi va sotib oladi. Jamiyatda ishlab chiqarishni rivojlantirish, jamiyat o'zining bor bo'lganligida aholiga aloqador. Demak, xalqning ko'payib borishi yoki aksincha kamayib ketishi jamiyat kelajagi uchun ma'lum muammolarni keltirib chiqaradi.

Ushbu muammolarning oldini olish, aholining normal holatda yuksalib borishiga erishish uchun demografik holatni ilmiy tadqiq qilib o'rganib borish zarur. Ammo uning o'ziga xos tomonlari bor. Sababi, dunyo davlatlarida xalqning qad ko'tarishida, ulardagi iqtisodiy imkoniyatlari, ijtimoiy holati mushtarak emas. Izlanishlarga qaraganda O'zbekistonning demografik sharoitiga tegishli statistik ma'lumotlar XIX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab mavjud bo'lgan. Ushbu ma'lumotlarga qaraganda O'zbekstanda aholi soni XX asr boshida asta-sekin ko'payib kelgan [9]. Masalan, XX asr boshidan bugungi kunga qadar yer sharining aholisi 3,2 marta ko'paygan bo'lsa, O'zbekistonning aholisi 5,5 barobarga ko'paygan. Biroq xalqning ko'payish sur'ati har hil tarixiy davrlarda har hil bo'lgan. Aholi sonining ko'payishiga har bir davrning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, oilaning jamiyatda va mamlakat siyosatida tutgan o'rni, qadriyatlar va urf-odatlar ta'sir etgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisi to'g'risidagi aniq ma'lumotlarni yig'ish, yig'ilgan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilib o'rganish, aholining rivojlanish nazariyasini ishlab chiqish, demografik jarayonlar (tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish, migratsiya jarayoni) qonuniyatlarini nazariy asoslash va baholash, aynan shu mintaqadagi demografik siyosat va demografik prognozlashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish hozirgi ijtimoiy demografiya sohasining oldida turgan vazifalardan biri hisoblanadi.

### Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Entoni Giddens "Sotsiologiya" T.2002. 832 b.
2. Zaretdinova Nesibeli Kurbanbaevna. "Qaraqalpaqstan shárayatinda socialliq demografiyani úyreniw zárúrligi"//TJSS Thematics Journal of Social Sciences. – B. 32-35.
1. Bo'rieva M.R., Tojjeva Z.N., Zokirov S.S. "Aholi geografiyasi va demografiya asoslari". – Toshkent, 2011. – b 15.
3. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. "Demografiya". – Toshken: Noshir, 2011. 296-b.
4. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши. Монография. – Тошкент, 2010.
5. Medkov V.M. demografiya. – M.: Infra-M, 2007. – p.122.
6. Smirnova I. V. Demografiya. Kaluga, 2004. – p.55.
2. Тожиева З.Н., Ибрагимов Л. Аҳоли ўсиши ва озиқ-овқат хавфсизлиги // Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 39-жилд. – Тошкент, 2012. – Б.76-78.
3. <https://demografiya.uz/demografik-category/qoraqalpogiston-respublikasi/>

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
ТОМ 7, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
VOLUME 7, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000